

## MILLIY KURASHNING BUGUNGI KUNDA TALABA-YOSHLAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

*Shoxnazarova Ruxsora Bobonazar qizi*  
*Murodova Ruxshona Muzaffar qizi*  
*ChDPU Jismoniy madaniyat ta'limi o'nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada milliy sportimiz hisoblangan kurashning bugungi kundagi talaba-yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati, uni yanada ommalashtirish masalalari haqida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Sport, tarbiya, kurash, "ta'zim", "to'xta", "kurash", "halol", "chala", "yonbosh", urf-odat, an'ana, meros, chidamli lik, yutuq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev Endi jahon sport maydonlarida "halol", "g'irrom", "chala", "yonbosh" degan so'zlar jaranglab O'zbek nomini dunyoga tarannum etadi! deganlaridek Sport bu-inson tarbiyasining bir qismi hisoblanadi. Barcha sport turlari insonlarning ma'lum sifatlarini rivojlantirish va tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Masalan, u shaxsda eng birinchi navbatda chidamlilik jismoniy sifatini to'laqonli shakllanishiga katta turki bo'ladi. Bunga misol qilib, kurash sport turini olishimiz mumkin. Bu sport turining muallifi ham uni rivojlantiruvchi ham muayyan bir xalq yoki millat hisoblanadi.

Ayni bugungi kunda kurash sport turi bilan shug'ullanuvchilar soni ham keskin ortmoqda. Yoshlarni bo'sh va vaqtini samarali, ya'ni band o'tkazish uchun kurashga jalb qilinmoqda. Mustaqillik yillaridan so'ng, kurash sportimiz yurtimiz bayrog'ini yanada balandlatdi, madhiyamiz esa bod-bod yangradi. Insonga bundan-da ortiqroq baxt bormikan?!

Qadimiy qadriyatlarimiz, xususan, mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, gumanizm g'oyalarini o'zida mujassam etgan milliy sportimiz bo'lgan kurashni ommalashtirish, rivojlantirish va dunyoga tanitish hamda ushbu qadriyatimizni umumjahon durdonasiga aylantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, kurashning tobora ommalashib borayotganligi nufuzli xalqaro musobaqalarni tashkil qilishga, mavjud infratuzilma va moddiy-texnik bazani modernizatsiya qilishga, sport inventarlari va kiyimlari ta'minotini yaxshilashga, bu borada ishlab chiqarishni kengaytirishga, shuningdek, soha uchun malakali kadrlar, trenerlar va hakamlar tayyorlashga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda.

Buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan kurash sportining boy an'analari va qadriyatlarini kelajak avlodlarga yetkazish, o'zbek sporti brendi nomi bilan kurashning

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

jahon arenasidagi rolini oshirish, yoshlarning milliy sportga bo'lgan qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish orqali ularda vatanparvarlik tuyg'usini yanada mustahkamlash, aholining barcha qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning, shuningdek, jahon xalqlarining mazkur sport turi bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarb ahamiyatga ega.

E'tirof etish lozimki, bugungi kunda kurash sport turi ham o'ziga xos o'sib-unishga, ravnaq topishga ulguryapti. Sportning bu turi asrlar osha necha ming yilliklar dan buyon avloddan avlodga o'tib kelmoqda. Mustabid tuzum kurash rivoji uchun yetarlicha to'sqinlik qildi. Tom ma'noda O'zbek xalqining g'ururi bo'lgan kurash tahqirlangan.

Mustaqillikdan keyin O'zbekiston Hukumati kurashni milliy sport turi va milliy g'urur timsoli sifatida qadrlash va rivojlantirishda amaliy ishlarni olib bordi. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kurashni rivojlantirishga doir farmon va qarorlari kurash rivojiga ulkan ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'zbek milliy kurashining paydo bo'lishi milodiy 2-mingyilliklarga borib taqaladi. Kurash- O'zbek xalqi madaniyati va urf-odatlarini negizida shakllangan sport turidir.

Bugungi kunda kurashni yanada rivojlantirish, uning Olimpiya o'yinlari dasturidan munosib o'rin egallashi uchun yaratilgan keng qamrovli imkoniyatlardan foydalanish joiz. Xususan, bugungi texnika asri davriga e'tibor bilan razm salsak, haqiqatan ham, bu sportga juda ko'p o'zgarishlar olib kirilmoqda. Jumladan, yoshlarni millatimiz ramzi bo'lgan asrlar osha avloddan avlodga o'tib kelayotgan bu sport turiga jalb qilish maqsadida bir qancha kurash zallarida, keng miqyosda musobaqalar tashkillashtirilmoqda, bundan tashqari, maktab o'quvchilari va talaba yoshlar uchun darslik sifatida o'tilishi rejalashtirilmoqda. Hozirgi kunda minglab o'g'il-qizlarimiz bu sport bilan shug'ullanib kelmoqda. Shunday ekan, ularning bo'sh vaqtini samarali o'tkazish uchun kurashga jalb qilish, maktablarga va oliy o'quv yurtlariga borib so'rovnomalar o'tkazish kerak.

"Kurash", "ta'zim", "to'xta", "yonbosh", "chala", "dakki", "halol", "g'irrom" kabi o'zbekcha so'zlarning turli millat va elatlarga mansub hakamlar tomonidan yangrashi ko'ksimizni faxr-iftihor tuyg'usi bilan mavjlantiradi. Milliy kurashimiz usullarini mohirona qo'llab, bel olishayotgan xorijlik polvonlarni ko'rganimizda ko'nglimiz tog'day ko'tariladi. Bularning barchasi o'zbek kurashini umuminsoniy qadriyat sifatida Olimpiya o'yinlari safidan munosib o'rin olishga haqli ekanligini yaqqol dalilidir.

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Milliy kurash sport turi azaldan yigitlarimiz or-nomusi ramzi sifatida e'tirof etilgan. Masalan, bunga quyidagilarni misol qilamiz: O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodi bo'lmish "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Avazxon" kabi dostonlarda polvonlar kurashi madh etilib, epchil, chaqqon va dono, zukko polvonlar ulug'lagan. Ular millat qahramonlari timsoli sifatida e'zozlangan. Ulug' mutafakkirlar Abu Ali Ibn Sinoning "Tib qonunlari", Alisher Navoiyning "Xamsa", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Amir Temurning "Temur tuzuklari" kabi asarlarida kurash haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarning tarbiyasi uchun ularning bo'sh vaqti to'g'ri taqsimlanishi, sport bilan doimiy ravishda band bo'lishi lozim.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.11.2020 yildagi PQ-4881-son
2. T.S. Achilov "Kurash turlari va uni o'qitish metodikasi" T: "Ishonchli hamkor", 2021.
3. Tokhirzhonovich, Arabboev Kakhramon. "The effect of physical activity on the body of schoolchildren in physical education lessons." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 112-115.
4. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.
5. Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA'VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.
6. Arabboev, K. T. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.
7. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE "INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik,  
pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv  
masalalari

8. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Atadjanov Asadbek Baxtiyor o'g'li. "IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE AEROBICS PROGRAM FOR FEMALE STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 38-41.

